

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 336.713:005.334(575.1)

QURBONOV ILHOM JUMAQULOVICH

**KREDIT INSTITUTLARINING RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Iminov Odiljon Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent shahri – 2025-yil

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. KREDIT INSTITUTLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI VA XORIJ TAJRIBASI

- 1.1. Kredit institutlarida risklarni boshqarish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar evolyutsiyasi
- 1.2. Kredit institutlarida risklarni boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari
- 1.3. Kredit institutlari risklarini boshqarishning xorij tajribasi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Birinchi bob bo'yicha xulosa.....

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KREDIT INSTITUTLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMI FAOLIYATINING TAHLILI

- 2.1. Mamlakat bank tizimida risklarni boshqarish amaliyoti tahlili
- 2.2. Kredit tashkilotlarida risklarni boshqarishda stress-test o‘tkazish tartibi va tahlili
- 2.3. Tijorat banklarida risklarni boshqarish amaliyotiga ta’sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlili

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....

III BOB. KREDIT INSTITUTLARI RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

- 3.1. Kredit institutlarida risklarni boshqarish bilan bogʻliq muammolar va ularning yechimlari
- 3.2. Kredit institutlarida risklarni boshqarish tizimi samaradorligini oshirish yoʻllari

Uchinchi bob bo'yicha
xulosa.....

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kredit tashkilotlarining risklarni boshqarish faoliyatini samarali tashkil etish, risk siyosatini doimiy ravishda takomillashtirib borish, risk profili to'g'ri aniqlash va risk appetitini sifatli boshqarish, bank risklarini to'g'ri boshqarish orqali ularning daromadlarini oshirish va moliyaviy barqarorligini yanada ko'tarish, bank faoliyati uchun xavf soladigan asosiy risklar tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, «2023-yilda bank aktivlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotga nisbati Lyuksemburgda 693 foiz, Shveysariyada 397 foiz, Buyuk Britaniyada 377 foiz, Fransiya 339 foiz, Ispaniyada 292 foizni tashkil etgan. Shuningdek, bank depozitlarining YAIMga nisbati Lyuksemburgda 561 foiz, Ispaniyada 193 foiz, Kanadada 192 foiz, Buyuk Britaniyada 148 foizni tashkil etgan»¹. Kredit tashkilotlarida risklarni nazorat qilish qo'mitasi faoliyatini samarali tashkil etish va vazifalarini aniq belgilash, bank risklarining asosiy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va monitoring qilish, bankning risklarni nazorat qilish uzluksizligini ta'minlash, risklarning ahamiyatini aniqlash baholashni taqozo etmoqda.

Jahonda kredit tashkilotlarining risklarni samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish va risk-menejment tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish chora-tadbirlariga yo'naltirilgan ilmiy ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Banklarda risklarni boshqarishni takomillashtirishda konsentratsiya riskini aniqlashda nazorat qiymati sifatida xorijiy valyutadagi aktivlarning jami aktivlardagi ulushi, xorijiy valyutadagi kreditlarning jami kredit portfelidagi ulushi, banklararo depozitlarning jami depozitlardagi ulushiga nisbatan chegaralar belgilash, likvidlilik riskini boshqarishni takomillashtirishda muddatli depozitlarning, talab qilib olinguncha mablag'larning chiqib ketishi va yirik depozitorlar mablag'larining chiqib ketishiga nisbatan me'yorlar belgilashni inobatga olish bilan bog'liq muhim masalalar borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda bank sohasini yanada rivojlantirish, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, bank risklarini samarali boshqarish mexanizmini yaratish

¹ <https://www.helgilibrary.com/indicators/bank-deposits-as-of-gdp/>

va ularga doimiy amal qilib borishni ta'minlash, risklarni boshqarish siyosati va strategiyasini shakllantirishning zamonaviy usullaridan unumli foydalanish, banklarda paydo bo'ladigan risklarni boshqarishning zamonaviy modellarini qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikada "kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash"², "bank sektori nazoratini takomillashtirish va banklarda tavakkalchiliklarni boshqarishning zamonaviy tizimini tatbiq etish, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali kreditlar ajratish jarayonlarini soddalashtirish"³ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda banklarning tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, banklarda risklarni boshqarish siyosatini zamon talablariga moslashtirish, risk appetiti va risk profili siyosatini boshqarish tizimini yanada samarasini oshirish choralarini ko'rish, risklarni boshqarishda vakolatlar va majburiyatlarni aniq belgilash va ularni doimiy ravishda monitoring qilib borish, banklarda risklarni boshqarishda xorij amaliyotini qo'llash dolzarb masalalardan biridir.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 11-noyabrdagi PF-5877-son "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari,

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonb // Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 12.05.2020-y.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmon. Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 12.05.2020-y.